

**REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLAR SALOMATLIGIGA
EKOLOGIK OMILLARNING TA'SIRI**

Rasbergenova Xurliman

Qoraqalpoq davlat universiteti, Biologiya mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Orol hududida yashaydigan reproduktiv yoshdagi ayollarning salomatligiga ta'sir qiluvchi ekologik omillar haqida so'z boradi. Hozirgi kunda ekologik omillar, xususan, havo, suv va tuproqning ifloslanishi ayollar salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.*

Kalit so'zlar: *Orol fojiasi, reproduktiv yosh, ekologik omil, salomatlik, reproduktiv tizim muammolari.*

Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ta'riflashicha "Reproduktiv salomatlik" deganda inson reproduktiv tizimi va funksiyasi bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarda nafaqat uning qandaydir kasallik yoki xastalikka chalinganligi, balki jismonan, ham aqlan va ijtimoiy jihatdan sog'-salomat bo'lishi tushiniladi [7].

Mamlakat aholisining reproduktiv salomatligini saqlash milliy xavfsizlikning muhim omillaridan biridir. Reproduktiv salomatlik ayolning hayot sifati, uning avlodlari va shunga mos ravishda jamiyat salomatligi va hayot sifatining eng muhim ko'rsatkichidir. Respublikamizda reproduktiv salomatlikni yaxshilash uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishiga qaramasdan reproduktiv tizim bilan bog'liq muammolar ko'p uchramoqda. Bunga asosiy sabab yashash joyimizning ekologik muhiti noqulay ekanligi, ya'ni Orol fojiasi bo'lib qolmoqda. Reproduktiv davr asosan, ayol hayotining 16 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan davrini o'z ichiga oladi. Reproduktiv yoshdagi ayollarning sog'lig'i metabolizm, o'sish va rivojlanish, uyqu va kayfiyat kabi funktsiyalar uchun muhim bo'lgan ba'zi gormonlar chiqarilishini tartibga soluvchi yaxshi ishlaydigan endokrin tizimga bog'liq [5]. Endokrin dizraptorlar deb nomlanuvchi ba'zi moddalar gormonal tizimning funktsiyasini o'zgartirishi va sog'liq uchun salbiy ta'sir xavfini oshirishi mumkin [6].

Orol dengizining qurishi dunyodagi eng og'ir ekologik fojialardan biri bo'lib, uning oqibatlarini bugungi kunda aholining salomatligiga jiddiy ta'sir etmoqda. Suvning va tuproqning ifloslanishi, shuningdek, havodagi zararli moddalarning yuqori darajada bo'lishi reproduktiv salomatlikga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayollar organizmi ekologik faktorlarga nisbatan o'ta sezuvchan bo'lib, reproduktiv yoshdagi ayollarda kasalliklar xavfi yuqori [10]. Mintaqa hududida yashovchi o'smir qizlarda va reproduktiv yoshdagi qizlarda morfofunktsional xususiyatlar, ularning tana tuzilish tiplari, tana vazni indeksi o'zgarishlari, yurak qon tomir tizimining holati, funktsional imkoniyatlari, jismoniy rivojlanishni baholashning xalqaro usullari (Z-Score) dan foydalanilganligi haqida ilmiy ma'lumotlar uchraydi [1-4, 8, 9, 11-13].

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Ushbu ta'sirlarning asosiy oqibatlari umuman sayyoramizning ifloslanishidir. Biz suv, tuproq, havoning ifloslanishini, ekotizimlarning yo'q qilinishini, yashash joylarining parchalanishini va boshqalarni ko'rishimiz mumkin. Bularning barchasi kasalliklarning ko'payishiga, biologik xilma-xillikning yo'qolishiga va o'simlik va hayvonot dunyosida ham, odamlarda ham sog'liq muammolariga olib keladi [7].

Buyuk mutafakkir bobomiz Abu ali ibn Sinoning hozirda ekologiya deb yuritilayotgan atrof-muhitning deyarli barcha omillari, ularga insonning, jonzoqlarning ta'siri va nihoyat, bu omillarning inson va jonzoqlarga aks ta'siri to'g'risidagi mashhur iboralarini keltirishning o'zi kifoya. "Chang bo'lmaganda inson 1000 yil yashagan bo'lar edi", yoki: "Havo toki muvozanatlangan va toza bo'lsa, begona qo'shimchalar qo'shilmasa, u salomatlik garovi bo'ladi, aks holda turli kasalliklarga sabab bo'ladi". Yashash joyi muhiti borasida esa "Tib qonunlari"da alohida ta'kidlab, shunday deyilgan: "Turar joy tanaga turlicha ta'sir qilishi mumkin: tuproq tarkibi hamda xususiyati, suvning serobliligi yoki kamyobliligi, daraxtlarning mo'lligi, konlarga yaqinligi va boshqalar yashash joyi tanlanganda muhim ahamiyatga ega". Bu fikrlar atrof-muhit to'g'risida bo'lib, tibbiy ekologiyaga tegishli ekanligining guvohi bo'lamiz.

Qoraqalpog'iston hududida, demografik va ijtimoiy-huquqiy omillar, tibbiy va madaniy sharoitlar ayollarning reproduktiv salomatligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Qoraqalpog'istonning ko'p qismini qishloq joylari tashkil etadi, bu yerda an'anaviy turmush tarzlari va ijtimoiy-psixologik jihatlar hali ham katta o'ringa ega.

Qoraqalpog'iston ayollarining reproduktiv salomatligi ko'plab omillarga bog'liq, jumladan:

- Sog'liqni saqlash tizimining yuksalishi va tibbiy xizmatlarga kirish darajasi;
- Reproduktiv salomatlik va tug'ilish darajasi bilan bog'liq omillar, masalan, ayollarning ta'lim darajasi, iqtisodiy holati va ish bilan ta'minlanish darajasi.
- Qishloq joylarida ayollar ko'pincha oilaviy va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilingan, bu esa ularning reproduktiv sog'lig'iga ta'sir qilishi mumkin.
- Qoraqalpog'istonda, shuningdek, boshqa Markaziy Osiyo mintaqalarida ham, an'anaviy va diniy qarashlar ayollarning reproduktiv salomatlikka bo'lgan munosabatiga ta'sir qilishi mumkin.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Qoraqalpog'istonda sharoitida reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligini yaxshilash uchun sog'lom turmush tarziga rioya qilish va bir qator ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar zarur. Ayollarning reproduktiv salomatligini saqlash profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirlarining qo'shimcha kompleksini ishlab chiqishni talab qiladi, shu jumladan yangi uskunalarni gigienik baholash, ishlab chiqarish muhitining fizik va kimyoviy omillarining zararli ta'siriga qarshi samarali vositalardan foydalanish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Розумбетов, К.У., Шамуратова, Г.К., & Есимбетов, А.Т. (2023). Особенности тотального размера тела и индекс массы тела у подростков, проживающих на разном расстоянии от неблагоприятного очага экологической катастрофы: на примере Южного Приаралья. *Re-health journal*, (3 (19)), 26-35.
2. Розумбетов, К.У., & Ибраимова, А.К. (2021). Определение ИМТ и телосложения девушек, проживающих в экологически неблагоприятных условиях Приаралья. *Бюллетень науки и практики*, 7(6), 191-199.
3. Розумбетов, К.У., Есемуратова, С.П., Нысанова, С.Н., & Есимбетов, А.Т. (2022). Эволютивный самотип у девушек, проживающих в условиях неблагоприятной экологической обстановки. *Forcipe*, 5(S3), 540-541.
4. Розумбетов, К.У., Есемуратова, С.П., & Нысанова, С.Н. (2022). Оролбуйидан турлича узокликда яшовчи қизларда тананинг морфофункционал хусусиятлари. In *Экологический мониторинг последствий Аральской катастрофы для здоровья человека и сохранения биосферы* (pp. 91-93).
5. Руководство по эндокринной гинекологии / Под ред. Е. М. Вихляевой. — 3-е изд., доп. — М.: ООО «Медицинское информационное агентство», 2006. — 784 с.
6. Хамидулина Х.Х., & Дорофеева Е.В. (2013). Эндокринные разрушители (endocrine disruptors). Современное состояние проблемы. *Токсикологический вестник*, (2 (119)), 51-54.
7. Allayarov Ya.N., Asqarova F.Q. *Ginekologiya va reproduktiv salomatlik Toshkent-2023*.
8. Erkudov, V., Lytaev, S., Rozumbetov, K., Pugovkin, A., Matchanov, A., & Rogozin, S. (2023, June). Validation of Height-for-Age and BMI-for-Age Z-scores Assessment Using Android-Based Mobile Apps. In *International Work-Conference on Bioinformatics and Biomedical Engineering* (pp. 35-47). Cham: Springer Nature Switzerland.
9. Erkudov, V.O., Rozumbetov, K.U., Pugovkin, A.P., Matchanov, A.T., Esimbetov, A.T., Arachchi, S., Rathnayake, U. (2023). Assessment of youth fitness under long-term exposure to toxic environmental conditions due to pesticides: Case from Aral Sea region. *Case Studies in Chemical and Environmental Engineering*, 8, 100504.
10. Nazarov, A. (2021). The impact of the chemical industry on the environment. *Eurasian journal of academic research* 1(8), 145-148
11. Rozumbetov, K.U., & Esimbetov, A.T. (2021). Assessment of the functional state of the cardiovascular system in males and females. *Theoretical & Applied Science*, (8), 376-380.
12. Rozumbetov, K.U., Matchanov, A.T., Esemuratova, S.P., & Nisanova, S.N. (2021). Characteristics of the distribution of somatypes and assessment of physical development in girls living in the Republic of Karakalpakstan. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 06 (98), 130-134.
13. Rozumbetov, K.U., Matchanov, A.T., Tayirova, A.Z., & Dzholdasbayeva, K.A. (2021). Monitoring of physical development of females of the Republic of Karakalpakstan. *Scientific progress*, 2(1), 108-110.